



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 22-iyul, chorshanba,
64 (24.244)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yolg'iz
yog'och
uy
bo'lmas

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



Yoshlar bilan ishlashning yangi yondashuvlari

Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika ishchi guruhi bir hafta davomida viloyatimizda kompleks o'rganish ishlarini amalga oshirdi. Bu jarayonda hududlarda yoshlar bilan ishlash tizimi, ularning bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda murojaatlarni manzilli hal etish bo'yicha amaliy ishlar joyiga chiqqan holda tahlil qilindi.



Ushbu o'rganishlarning muhim bosqichlaridan biri Samarqand shahri yoshlari bilan tashkil etilgan ochiq muloqot bo'ldi. Respublika ishchi guruhi rahbari, O'zbekiston mahallalar uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev ishtirok etgan uchrashuvda yoshlarning muammolari, taklif va tashabbuslari tinglandi. Muloqot davomida 16 ta murojaat qabul qililib, ularning 9 tasi shu joyning o'zida hal etildi. Yoshlarga tikuv mashinalari, payvandlash apparati, kompyuter, kitoblar jamlanmasi topshirildi, bir nafar yoshga esa "skuter" taqdim etildi. Qolgan murojaatlar tegishli tashkilotlarga biriktirilib, ijrosi nazoratga olindi.

Uchrashuvda mahallada zamonaviy kutubxona tashkil etish tashabbusi ham ilgari surildi. Qahramon Quronboyev Maroqand mahallasiga borib, hudud infratuzilmasini o'rgandi hamda mahalla faollari bilan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlar uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratish masalalarini muhokama qildi. Bunday amaliy yondashuvlar yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Samarqand shahridagi Eski Qalandarxona mahallasida yashayman, – deydi Kamoliddin

Ochilov. – Payvandlash ishlari qo'limdan keldi, ammo uskunam yo'q edi. Bir usta sherigim bilan birga ishlab yurardim, oyiga 2 million so'm atrofida daromad topardim. Bu albatta, kam. O'zimning payvandlash uskunam bo'lsa, yaxshi bo'lardi, deb yurardim. O'zbekiston mahallalar uyushmasi raisiga shu masala bilan murojaat qilgandim. Shu yerning o'zida menga uskunaga taqdim qilindi. Aslida, bu kimlar uchundir arziyas tuyulishi mumkin, ammo men uchun katta imkoniyat bo'ldi. Endi o'z uskunam bilan oyiga kamida 5–6 million so'm daromad qilishni rejalashtiryapman. Ishim yurishib ketsa, faoliyat-imni yanada kengaytiraman.

– Asosiy maqsadimiz – yoshlarning murojaatlarini rasmiy hisobot uchun emas, balki ularning hayotida aniq o'zgarish qilish nuqtai nazaridan o'rganishdir, – deydi Respublika ishchi guruhi a'zosi, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti direktorining o'rinbosari Alisher Yunusov. – Masalan, bizga biriktirilgan Toyloq tumanida joriy yilda 6,5 ming nafardan ziyod yigit-qiz oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini tamomlab, mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Ularning bandligini ta'minlash asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Joylarda o'tkazilayotgan o'rganishlar davomida ko'plab yoshlarning tadbirkorlik qilish, kasbini rivojlantirish va o'z mehnati orqali daromadini oshirish istagini ko'rdik. Shuning uchun har bir murojaat yuzasidan mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda manzilli yechimlar ishlab chiqilmoqda. Eng muhimi, yoshlar o'z takliflari eshitilayotganini va amalda qo'llab-quvvatlanayotganini his qilmoqda.

Viloyatda bir hafta davom etgan o'rganishlar yakunlandi. O'rganishlar davomida yoshlar bilan ishlash tizimining samaradorligi tahlil qilinib, ularning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va murojaatlarga manzilli yechim topish borasidagi ishlar yanada kuchaytirilishi belgilandi. Bunday ochiq muloqotlar bilan hamkorlikda manzilli yechimlar ishlonchini mustahkamlash, ularning taklif va g'oyalari hayotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

To'liqin SIDDIQOV.



Qo'shrabotlik ehtiyojmandlarga muruvvat ko'rsatildi

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan e'lon qilingan "Mahalla obodligi va mehsaxovat oyligi" doirasida Qo'shrabot tumanidagi 250 dan ziyod ehtiyojmand oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar berildi.

Shu yilning 16-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda "mahalla yetilligi" faoliyatini yanigicha tashkil qilish bo'yicha videoselektor yig'ilishida eng ulug', eng aziz bayramni mahallalarda ko'tarinki ruhda o'tkazish uchun "Mahalla obodligi va mehsaxovat oyligi" e'lon qilindi.

Viloyatimizdagi mahallalarda ham oylik doirasida amaliy ishlarga kirishildi. Viloyat hokimligi hamda O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakilligi hamkorligida Qo'shrabot tumanida saxovat tadbirlari uyushtirildi.

Viloyat va tuman hokimliklari mas'ullari, imom-xatiblari hamda joriy yilda muborak Haj ziyoratini ado etib qaytgan hoji otalar ishtirokida tuman mahallalaridagi ijtimoiy ko'makka muhtoj, ehtiyojmand oilalarga tashabbuskor hojilar homiyligida maktab

formalari, o'quv qurollari hamda oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

– Muhtoj insonlarga muruvvat ko'rsatish, yetimlarning boshini silash muqaddas dinimizdagi eng ezgu amallardan hisoblanadi, – deydi viloyat bosh imom-xatibi o'rinbosari Xayrulloh Sattorov. – Shuning uchun imom-xatiblarimiz va muborak safarni ado etib kelgan hojilarimiz Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi oldidan e'lon qilingan "Mahalla obodligi va mehsaxovat" oyligida faol ishtirok etishga ahd qilib, bu xayrli ishga bosh qo'shdilar. Aholi xonadonlariga kirib, ularga sovg'a-salomlarni yetkazish bilan birga ma'rifiy suhbatlar ham uyushtirdik, odamlarning fikrlarini eshitdik.

Tashkilotchilarning ma'lum qilishicha, bunday muruvvat tadbirlari viloyatning boshqa tuman va shaharlarida ham o'tkaziladi.

Xizmat ko'rsatish sektori tadbirkorlarini qanday muammolar qiynayapti?

Prezidentimizning oltinchi bor o'tkaziladigan tadbirkorlar bilan uchrashuvi oldidan viloyatimizdagi umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va mehmonxona sohasida faoliyat olib borayotgan subyektlar tomonidan bir qator taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Jumladan, tadbirkor tomonidan xalqaro terminalga ulanish uchun ruxsat olish, turizm, yoshlar markazi, motel tashkil etish uchun yer ajratish, mahallalardagi yoshlarni "Gastro entro" o'quv markaziga jalb etish va sertifikat olgan yoshlarni soha bo'yicha doimiy ish bilan ta'minlashda tegishli idoralar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha murojaatlar bo'ldi.

Gastronomik sohada fuqarolarning ovqatdan zaharlanishining oldini olishda mahsulotning iste'molga yaroqliligi bo'yicha dastlabki tekshiruvdan o'tkazish uchun laboratoriya tashkil etishga ruxsat berish, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha startap loyihalarini, yashirin iqtisodiyotdan chiqish, uy (kvartira) tipidagi uy mehmonxonalarni ham e-mehmon platformasiga ulash borasida takliflar bildirilgan.


"VOLIDAM" MCHJ rahbari Otabek Bekmurodov Registon atrofida tilanchilarning ko'pligi, ular tomonidan xorijiy va mahalliy turistlarning moddiy boyliklari o'g'irlanishi, tartibsizlik keltirib chiqarish holatlari kuzatilayotganini ta'kidlagan. Bu esa viloyatning turizm jozibadorligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Mazkur holat tegishli idoralar tomonidan o'rganilib, ta'sirchan choralar ko'rish taklif etildi.

Bozorlarda sotilayotgan quruq meva va boshqa milliy iste'mol tovarlarni "Hunarmand" uyushmasi a'zolari bilan maslahatlashib, "Milliy brend" tipidagi qadoqlash masalasini ko'rib chiqish bo'yicha ham takliflar ilgari surilgan.

Viloyat Tadbirkorlar shtabi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Adiz Boboyev
Narpay
tumanidagi
yerosti yo'lagi
qurilishi bilan
tanishdi



Mingtepadan VIII asrga oid saroy qoldiqlari topildi

Jomboy tumanidagi Qoramo'yin mahallasining shimoli-g'arbida VII-VIII asrlarda Sug'dning yirik shaharlaridan bo'lgan Mingtepa yodgorligi joylashgan.

Obyekt 40 gektarga yaqin maydonni egallagan bo'lib, tarixiy manbalarda uning markazida hukmdor qarorgohi bo'lgani qayd etiladi. Shahriston qismi hukmdor qarorgohining shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklda, balandligi 8 metrga teng bo'lgan mudofaa devorlari bilan o'ralgan.

Samarqand arxeologiya instituti ilmiy xodimlari Amriddin Berdimurodov, Husniddin Rahmonov va Nigora Mahkamova boshchiligidagi yodgorlikda qazishma ishlari olib borilmoqda.

Arxeolog olim Amriddin Berdimurodovning ta'kidlashicha, so'nggi yillarda Samarqand arxeologiya instituti, Yaponiya-Kioto san'at univer-



siteti va Berlin-Brandenburg fanlar akademiyasi ilmiy xodimlari bilan hamkorlikda muntazam arxeologik

qazishma ishlari natijasida yodgorlik milodiy III asrda paydo bo'lganligini ko'rsatmoqda. Yodgorlikni o'rganish-

ning dastlabki jarayonida milodning VII-VIII asrlariga oid paxsa va xom g'ishtdan qurilgan mahobatli uylarning o'rni va bir qancha ashyolar aniqlangan.

– Yodgorlikning shahriston qismida olib borgan birinchi qazuv ishlarimiz davomida VIII asrga oid devoriy surat namunalari topildi, – deydi H.Rahmonov. – Ikkinchi qazishmada esa altar o'rni aniqlangan bo'lib, uning xona devorlarida qizg'ish, ko'k, havorang devoriy surat namunalari ko'rish mumkin. Yaqinda yodgorlikning Ark (qal'a) qismida milodiy VIII asrning birinchi yarmiga oid hukmdor saroyining me'moriy qoldiqlarini tadqiq qildik. Qazishmalar jarayonida saroyning zal qismida haykaltaroshlik namunalari aniqlandi va bu topilmalar hukmdorlar saroyining xarobalari sifatida taxmin qilindi. Shu bilan birga, yodgorlikning siyosiy, madaniy va badiiy hayoti haqida yangi ma'lumotlarni taqdim etishi kutilmoqda.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



1993-YIL YANVAR
Samarqandda xalqaro telefon aloqa stansiyasi ishlay boshladi.

IYUN
Samarqandga Turkiyadan "Dogan" nomli 14 ta yangi taksi mashinasi keltirildi.

Samarqandda O'zbekiston Fanlar akademiyasi filiali ochildi.

AVGUST
Viloyatimizdagi besh oliygohga test sinovlari asosida 9 ming nafar abituriyent talabalikka qabul qilindi.

OKTABR
Eron Islom Respublikasi Prezidenti Hoshimiy Rafsanjoniy boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi.

Har bir kitob uchun 3 kun:

yzlab kitob o'qib, muddatidan avval ozodlikka chiqish mumkinmi?

Jazoni o'tash muassasasida o'tgan har bir kun mahkum uchun og'ir sinov. Ammo endi bu kunlar ma'naviy o'zgarish, bilim va umid bilan qisqarishi mumkin. Qonunchilikdagi yangilik mahkumlarga kitob mutolaasi orqali jazo muddatini kamaytirish imkonini berdi.

Joriy yil 15-yanvarda Prezidentimiz tomonidan imzolangan qonunga binoan, Jinoyat kodeksining 73-moddasiga o'zgartirishlar kiritildi. Hujjatga muvofiq, mahkumlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan adabiyotlar ro'yxatidagi kitoblarni o'qishi shart.

TARTIB QANDAY YO'LGA QO'YILDI?
Yaqinda qonun ijrosini tashkil qilish tartibi tasdiqlandi. Aniqrug'i, joriy yil 12-iyun kuni "Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning jazoni o'tash davrida to'g'ri ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan adabiyotlarni o'qiganligi faktini tasdiqlash bo'yicha komissiya faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Yangi qoidalariga ko'ra, talabgorning jazo muddati har bir o'qigan kitobi uchun uch kunga qisqartiriladi. Biroq bu imtiyozning chegarasi ham belgilangan. Mahkum bir yil

Endi davlat beradiganiga yugurmaysiz

Yoki qog'ozsiz hukumat davlat idoralari va odamlar o'rtasidagi masofani yaqinlashtiryapti

Ilgari biror hujjat yoki ma'lumotnoma olish uchun ishdan javob so'rab, uzoq yo'l bosib, turli idoralar eshigi tagida soatlab, ba'zan kunlab navbat kutishga to'g'ri kelardi. Bugun esa ko'pgina xizmatlardan uydan chiqmasdan, qo'limizdagi oddiy telefon yoki kompyuter orqali foydalanishimiz mumkin. Bu jarayon ilmiy tilda «Raqamli hukumat» va «davlat xizmatlarini raqamlashtirish» deb ataladi.

Bugungi kunda My.gov.uz orqali 800 dan ortiq davlat xizmati elektron shaklda taqdim etilmoqda. Portalning faol foydalanuvchilari soni 11 milliondan oshgan bo'lib, u davlat va fuqaro o'rtasidagi raqamli muloqotning asosiy platformasiga aylandi.

Albatta, hammaning ham uyida kompyuteri yo'q yoki keksa yoshdagi otaxon-onaxonlarimiz telefonda mukamal foydalanishni bilishmaydi. Shuning uchun shahar va tuman markazlarida shinam, zamonaviy Davlat xizmatlari markazlari tashkil etilgan. Siz u yerga borasiz, u yerdagi xodimlar sizga yordam berib, barcha ishlaringizni hal qilib beradi.

“RAQAMLI HUKUMAT” NIMA BERADI?

Buning odamlar va davlat uchun juda katta foydasi bor. Masalan, kompyuter va telefon hech kimdan pora olmaydi, hech kimni tanish-bilish qilmaydi. Tizimga ariza berdingizmi, kim bo'lishingizdan qat'i nazar, navbati bilan ko'rib chiqilaveradi.

Shuningdek, qanchalab qog'oz, ularni chop etish uchun ketadigan printer bo'yoqlari, katta-katta arxiv binolari tejalandi. Bularning hammasiga milliardlab pul sarflanadi. Raqamlashtirish orqali bu pullar tejalandi va maktablar, shifoxonalar qurishga, yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirilishi mumkin.

Raqamli hukumatning eng asosiy qoidalaridan biri «Yagona oyna» tamoyilidir. Buni oddiyroq tushuntiradigan bo'lsak, siz bitta eshikdan kirasiz va u yerdan o'zingizga



kerakli barcha xizmatlarni olib chiqasiz. Xuddi shunday, internetda ham bitta saytga kirib, barcha idoralarning xizmatidan foydalanasiz.

Ilgari yangi uy sotib olsangiz, uni rasmiylashtirish uchun notariusga, keyin kadastrga, keyin elektr, gaz, suv idoralariga alohida-alohida borib, shartnoma tuzib chiqish kerak edi. Hozir esa notarius uyni rasmiylashtirishi bilan, kompyuteridagi tizim orqali bu ma'lumot kadastrga ham, kommunal korxonalarga ham avtomatik yetib boradi. Uy yangi egasining nomiga uydan chiqmasdan turib o'tadi.

Umuman, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun «Servis davlat» tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish maqsadida davlat xizmatlarini «3 qadam», «foydalanuvchi uchun moslashtirilgan», «barchasi bir mobil ilovada» tamoyillari asosida raqamlashtirish hamda «elektron hukumat» tizimining yangi bosqichi – «Raqamli hukumat» tizimiga o'tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo'lishini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Demak, yangiliklar hali oldinda.

NIMALAR O'ZGARADI?

Raqamli transformatsiya - doimiy jarayon. Shu ma'noda aytilish mumkinki, raqamlashtirish jarayoni qog'oz hujjatlarni elektron ko'rinishga o'tkazish bilan cheklanib qolmayapti. U davlat, biznes va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning yangi madaniyatini shakllantirib, mamlakatning raqobatbardoshligi va barqaror taraqqiyoti uchun muhim omilga aylanmoqda.

Adliya vazirligidan olingan ma'lumotga ko'ra, davlat xizmatlari ko'rsatilishini soddalashtirish bo'yicha 200 ga yaqin xizmatlar to'liq qayta ko'rib chiqilgan. Natijada aholi va tadbirkorlardan 150 turdagi ma'lumot va hujjatlarni talab qilish bekor qilingan va 30 ga yaqin davlat xizmatlarining natijasini avtomat taqdim etish imkoniyati yaratilib, 30 dan ortiq davlat xizmatlarining natijasini pochta orqali yetkazib berish joriy etilgan.

Endi 500 dan ortiq davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini maqbullashtirish, 20 dan ortiq davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun undiriladigan to'lovlar miqdorini kamaytirish choralari ko'rilmogda. Bundan tashqari, 50 dan ortiq davlat xizmatlarini avtomat shaklda ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Ahamiyatli, kompozit va proaktiv shakllarda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sonini kamida 400 taga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Shu o'rinda aytib o'tish lozim, proaktiv (oldindan harakat qiladigan) xizmatlar bu — siz hali ariza bermasingizdan turib, davlatning o'zi sizga xizmat taklif qilishidir.

Masalan, oilada chaqaloq dunyoga keldi. Shifoxona bu haqda elektron tizimga ma'lumot kiritadi. Raqamli hukumat tizimi esa avtomatik ravishda bolaga tug'ilganlik haqidagi guvohnoma rasmiylashtiradi, otali-onaning bank kartasiga suyuqchilik pulini o'tkazadi, bolani yashash joyidagi shifoxonaga ro'yxatga qo'yadi, yaqin atrofdagi bog'chaga navbatga joylaydi.

Ota-ona esa telefoniga kelgan: «Farzandingiz muborak bo'lsin! Hamma hujjatlar tayyorlandi, suyuqchilik puli kartangizga tushdi» degan SMS-xabarni o'qiydi, xolos. Idoralarga borib yurish mutlaqo tarixda qoladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli hukumat yoki xizmatlarni elektronlashtirish - bu shunchaki chiroyli so'zlar yoki navbatdagi kompyuter dasturi emas. Bu - odamlarning eng qimmatli boyligi bo'lgan vaqtini tejash, ularning asablarini asrash va hayotini farovon qilish demakdir.

Diyor HUSANOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Qaysi fanlar bo'yicha milliy sertifikat joriy qilingan?



Shuningdek, 2026-2027-o'quv yilidan boshlab huquq fanidan bilish darajasini baholash bo'yicha test sinovini tashkil etish hamda uning natijalari asosida davlat namunasidagi sertifikat berish rejalashtirilgan.

SERTIFIKAT OLISH TARTIBI QANDAY?

Yuqoridagi qaror bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq talabgor mustaqil ravishda belgilangan shakldagi so'rovnomani <https://my.gov.uz/> sayti orqali elektron ravishda to'ldiradi va imtihon sanasi va hududini mustaqil ravishda o'zi tanlaydi. Mazkur nizomning 7-bandida «Talabgorga so'rovnomasi rasmiylashtirilganidan so'ng vakolatli organ tomonidan test sinovidan o'tish qoidalarini va test sinovini o'tkazish sanasi u o'tkaziladigan kundan kamida yetti kun oldin

QANDAY BAHOLANADI?

Maxsus dastur orqali tashkil etiladigan testlar 100 balllik tizim asosida baholanadi. Har bir to'g'ri javob uchun 4 ball beriladi.

Agar talabgor muayyan adabiyot bo'yicha 70 yoki undan yuqori ball to'plasa, testni muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi.

Mahkumning test sinovi topshirishini nazorat qilib borish va natijalarini xulosa asosida tasdiqlash uchun muassasalarda muassasa xodimlari hamda jamoatchilik vakillaridan iborat komissiya tashkil etiladi.

Komissiya tarkibi 7 nafar a'zo, komissiya raisi va kotibdan iborat bo'ladi.

Komissiya tarkibiga muassasa xodimlari, hududiy faol jamoatchilik vakillari, jumladan, Xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat tashkilotlarining hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lgan vakillari kiradi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, mazkur yangilik jazoning tarbiyaviy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Kitob mutolaasi insonning dunyoqarashini kengaytiradi, xatolarini anglashga va jamiyatga qayta moslashishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, takroriy jinoyatlarning oldini olishga yordam beradi.

Y.MARQAYEV.

YIDXP orqali e'lon qilinishi belgilangan. Yana shuni ta'kidlashimiz kerakki, talabgor 16 yoshga to'lmagan bo'lsa, ID-karta yoki xorijga chiqish pasporti orqali ro'yxatga olinadi. Agar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolari tomonidan Milliy sertifikat olish istagi bo'lsa, ushbu toifa talabgorlar Adliya vazirligi tomonidan vaqtincha ro'yxatga olinadi hamda ularga JShShIR raqami shakllantiriladi.

MILLIY SERTIFIKAT OLGANLARGA QANDAY IMTIYOZ BERILADI?

Vazirlar Mahkamasining 646-son qarorida «...2021/2022-o'quv yili qabulidan boshlab tegishli umumta'lim fanini (chet tili bundan mustasno) bilish darajasi to'g'risida davlat namunasidagi sertifikatga ega bo'lgan abituriyentga sertifikatdagi o'zlashtirish foiziga mos ravishda oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball berish tartibi joriy etilishi» belgilangan. Qarorning qisqacha mazmuni shuni anglatadiki, mazkur sertifikat oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha imtiyoz beradi. Shuningdek, boshqa tashkilotlar o'zlarining ichki hujjatlari asosida imtiyoz qo'llayotgan bo'lishi mumkin.

Milliy test tizimida hozirda A+, A, B+, B, C+, C darajali sertifikatlar beriladi.

Test natijalari xalqaro metodika — Rash modeli asosida hisoblanadi. Unga ko'ra:

70 balldan yuqori ball olgan talabgorga A+ daraja;

65 — 69,9 ball olgan talabgorga A daraja;

60 — 64,9 ball olgan talabgorga B+ daraja;

55 — 59,9 ball olgan talabgorga B daraja;

50 — 54,9 ball olgan talabgorga C+ daraja;

46 — 49,9 ball olgan talabgorga C darajali sertifikat beriladi.

Sertifikatlar 3 yil muddatga amal qiladi. Bunda:

A+, A darajali sertifikat olgan abituriyentlarga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ball beriladi;

B+, B, C+, C darajali sertifikat olgan abituriyentlarga mos ravishda sertifikatdagi umumiy ballga nisbatan foiz asosida oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball beriladi.

Milliy sertifikatga ega bo'lgan abituriyentga tegishli majburiy fanlar bo'yicha belgilangan eng yuqori ball beriladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 652-son qaroriga muvofiq musiqa madaniyati fani va jismoniy tarbiya fanini bilish darajasini aniqlash bo'yicha A+, A, B+, B, C+, C darajali sertifikatlar berilishi ham yo'lga qo'yildi.

B+ va undan yuqori darajali sertifikat olgan o'qituvchiga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda oylik maoshiga ustama beriladi.

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARI UCHUN HAM MILLIY SERTIFIKAT JORIY QILINADIMI?

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu tizim bo'yicha umumta'lim fanlarini bilishning ma'lum darajadagi sertifikatlariga ega bo'lish orqali tegishli vazirlik qarorlari asosida o'qituvchilarga ustama belgilash amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Aynan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun 2026-2027-o'quv yilidan boshlab milliy sertifikat berish tizimi amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan. Hozirda me'yoriy-huquqiy jihatlarini ishlab chiqilmoqda.

MILLIY SERTIFIKATNI SOTIB OLSA BO'LADIMI?

Bunday mazmundagi ma'lumotlar quiloqqa chalinib turadi, buni tabiiy hol deb tushunish kerak. Tizimda shaffoflik, adolat va xolislikni ta'minlash maqsadida Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Har bir xodim O'zbekiston huquqiy muhofaza qilish akademiyasi huzurida tashkil etilgan «Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish» o'quv kurslarida malakasini oshirib, tegishli sertifikatlariga ega bo'lishgan. Bundan tashqari, o'tkazilayotgan test natijalari tahlili xalqaro hamkorlar tomonidan ham yuqori baholanmoqda. Bir qancha davlatlar agentlik tomonidan yo'lga qo'yilgan testlarni o'z davlatlarida birgalikda yo'lga qo'yish bo'yicha ham kelishuvlar imzolash ustida ishlalayapti. Fuqarolar tizimdagi korrupsiyaga oid ma'lumot, murojaatlarni qabul qilish uchun rasmiy murojaat, taklif yoki shikoyat yubormoqchi bo'lsa, quyidagi manbadan <https://murojaat.gov.uz> foydalanishi yoki Ishonch telefoniga **(1195) 71-235-19-14** qo'ng'iroq qilishi mumkin. Agar abituriyentlarga milliy sertifikat olib berishni va'da qilishsa yoki o'qishga kirishda korrupsiya omillarini keltirib chiqaruvchi vaziyatlar yoki holatlarga duch kelsalar, Bilim va malakalarni baholash agentligiga, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishlari mumkin.

Vohid SIRLIBOYEV,
Bilim va malakalarni baholash agentligi viloyat bo'limi boshlig'i.

Korrupsiyaga shunday ta’rif beriladi odatda. Bu tan olingan haqiqat. Shu bois davlat budjeti mablag‘larining har bir so‘mi manzilli sarflanishini nazorat qiluvchi g‘aznachilik tizimida bu illatga qarshi kurashish ikki hissa muhim ahamiyatga ega. Hududiy boshqarmamiz tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Islohotlar samarasini yo‘qqa chiqaradigan dushman

Jumladan, korrupsiyaviy holatlar-ni barvaqt aniqlash, ularning sabab va shart-sharoitlarini tahlil qilish, korrupsiyaviy xatti-harakatlarlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllantirilmoqda. Ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”-gi va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlar bo‘yicha davra suhbatlari o‘tkazildi. Bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasining “Virtual akademiya” portali orqali 2025-2026-yillarda 66 nafar xodim o‘qitildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yo‘l xaritasi asosida ishga qabul qilish, rotatsiya to‘g‘risidagi axborotlar doimiy ravishda veb-saytda berib borilmoqda.

Korrupsiyaning asosiy ozuqasi mansabdor shaxs bilan fuqaro yoki tadbirkorning bevosita muloqotidir. Shu bois barcha g‘aznachilik amaliyotlari va to‘lov hujjatlari elektron aylanma tizimiga o‘tkazilgan. Prezidentimizning 2025-yil 26-iyundagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi hamda Budgetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni g‘aznachilik tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali hududlarda ixcham xizmat ko‘rsatish ofislari tashkil etildi. Ko‘rsatiladigan xizmatlar to‘liq elektron va proaktiv shaklga o‘tkazildi, moliyaviy operatsiyalarda shaffoflikni ta’minlash uchun sun‘iy intellekt va zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda. 2027-yil 1-yanvardan Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining tuman (shahar) bo‘limlari ishini raqamlashtirish hisobiga ularning faoliyati tugatiladi. Bunda G‘aznachilik qo‘mitasi hududiy boshqarmalarida har bir tuman va shaharlardagi biznes jarayonlarni va funksiyalarni qamrab oluvchi 1 shtat birligidan iborat ixcham xizmat ko‘rsatish ofislari tashkil etiladi.

Asosiy, g‘aznachilik tizimidan shartnomalar va yuridik majburiyatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish bosqichma-bosqich avtomatlashtirilmoqda. Boshqarmamizda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlasi

faoliyat yuritmoqda. Har bir xodimning ish faoliyati va qaror qabul qilish jarayonlari korrupsiyaviy xavf darajasi bo‘yicha tahlil qilinadi. Xodimlarni ishga qabul qilish va xizmat pog‘onalarida ko‘tarish faqat ochiq tanlovlar va shaffof kadrlar siyosati asosida amalga oshirilmoqda.

2025-yil viloyatda 193 mingga shartnoma va yuridik majburiyatlar ro‘yxatga olinib, 103 mingtasi, ya‘ni 53 foizi avtomatik rejimda g‘aznachilik xodimi ishtirokisiz ro‘yxatdan o‘tkazildi. 2026-yilda ushbu darajani kamida 70 foizga yetkazish mo‘ljallanmoqda.

Bunda kommunal xizmatlar uchun 3 mingga, narxi qat‘iy belgilangan tovar (ish, xizmat)lar uchun 1,5 mingga, yagona yetkazib beruvchidan xaridlar 9 mingga, soliq, yig‘im va majburiy to‘lovlar uchun 1,7 mingga yuridik majburiyatlar ro‘yxatdan o‘tkazilishi avtomatlashtiriladi. Bundan tashqari, sun‘iy intellekt texnologiyalari qo‘llaniladigan “Xaridlar monitoring portali” dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan bo‘lib bugungi kunda test rejimida sinovdan o‘tkazilmoqda. Ushbu dastur qo‘llanilishi natijasida shartnomalar va yuridik majburiyatlarni ro‘yxatga olish jarayonlarida inson omilining aralashuvi sezilarli kamayadi. Shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish eks-territorial ravishda markazlashgan tartibda random tizimi taqsimotiga asosan amalga oshiriladi. Bu tizim qo‘llanilishi xatoliklarni g‘aznachilik operatsiyalari amalga oshirilishidan oldin aniqlashga va bartaraf etishga imkon beradi.

Davlat mablag‘larini talon-toraj qilish xavfi eng yuqori bo‘lgan soha - bu davlat xaridlaridir. Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga asosan 2026-yil 1-yanvardan davlat buyurtmachilar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan 52 turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati bekor qilingan. Bunda 20 turdagi davlat xaridlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri, 23 turdagi xaridlar raqobatli usul hisoblanadigan “taklif so‘rovi” xarid turiga, 9 turdagi xaridlar esa boshqa raqobatli xarid usullariga o‘tkazildi.

Oybek HAMDAMOV,
viloyat g‘aznachilik xizmati
boshqarmasi boshlig‘i.

Prezidentimizning 2022-yil 7-iyuldagi “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Paxtachilik kengashi tashkil etilgan.

Kengash tomonidan xorijdan keltirilgan hosildor g‘o‘za navlarini respublikamiz sharoitiga moslashtirib, Shinjon usulida g‘o‘za yetishtirish tashabbusi yaxshi samara bermoqda. Bu usulda g‘o‘za yetishtirishda mehnat va xarajatlar sezilarli darajada kamaydi, tuproq zichlanishining oldi olinmoqda. Biroq yuqori natija uchun yerni to‘g‘ri tayyorlanishi muhim. Yer odatda quruq holda tayyorlanib, urug‘ ekilgach, tomchilatib sug‘oriladi. Plyonka ostida ekishda esa maydonning tekisligi ayniqsa, muhim.

O‘tgan yili mirishkorlarimiz Shinjon texnologiyasi asosida ishlagan holda yuqori hosildorlikka erishdi. Bu tajriba o‘z samarasini yaqqol namoyon etdi. Bu yil esa olimlar yanada samarali, ilmiy asoslangan yangi texnologiyani taklif qilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida bu yil paxta ekishda ilk bor shaffof, qizil va ko‘k rangli plyonkalar sinov tariqasida qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiya tuproq mikroiklimi va

Bir maydonda paxta va zira yetishtirish mumkin(mi?)



o‘simlik fiziologiyasini boshqarish orqali hosildorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tuproq haroratini oshiradi, nihol chiqishi va dastlabki o‘sishni tezlashtiradi. Shaffof plyonka tuproqni tez isitadi, natijada ildiz tizimi faol rivojlanadi, oziq elementlar o‘zlashtirilishi yaxshilanadi.

Intensiv g‘o‘za yetishtirish borasida viloyatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yil hosili uchun ilg‘or intensiv agrotexnologiyalarni qo‘llagan holda viloyatda jami 60 ming gektar maydonda g‘o‘za parvarish qilindi. Ushbu maydonlardan jami 265 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yig‘ishtirib olindi. Hosildorlik o‘rtacha 44,2 sentnerni tashkil qildi. O‘tgan yilga nisbatan 12,7 sentner ko‘p hosildorlikka erishildi.

Xitoyning Shinjon texnologiyasi

asosida 10,7 ming gektar maydonga 76x10 santimetr qo‘shqator sxemada, plyonka ostiga, tomchilatib sug‘orish tizimini joriy qilgan holda chigit ekilganligi hosildorlik yanada oshishiga xizmat qildi.

2025-yilda xorijiy navlardan o‘rtacha 55-60 sentner, ayrim fermerlar tomonidan 65-70 sentnergacha hosil olindi.

2026-yil hosili uchun 60 ming gektar maydonda chigit ekildi. Ushbu maydonlardan jami 310 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlash va hosildorlikni 51,7 sentnerga yetkazish ko‘zda tutilgan. 2025-yilga nisbatan 7,4 sentner ko‘p hosildorlikka erishiladi. Joriy yilda paxta maydonlarining 32,5 ming gektariga xorijiy, 27,5 ming gektariga mahalliy navlar ekildi.

Bundan tashqari, joriy yil-

da 34 ming gektar (56 foiz) maydonda qo‘shqator sxemada chigit (shundan 19,8 ming gektari Shinjon usulida plyonka ostiga, tomchilatib sug‘orish tizimini joriy qilgan holda) ekildi. Qo‘shqator sxemada ekilgan har gektar maydonda o‘rtacha 220-240 ming tup ko‘chat olinadi. Bu esa hosildorlikning sezilarli oshishiga xizmat qiladi.

Shinjon usulida g‘o‘za yetishtirishda bir vaqtning o‘zida bir daladan ikki hosil olish tajribasi ham juda samaralidir. Paxta va zira innovatsion uyg‘unlik tajribasidir. Xitoyning Shinjon hududida fermerlar paxtani zira bilan qo‘shib ekib, bir daladan ikki xil hosil olayotgani zamonaviy dehqonchilikning yorqin namunasi bo‘ldi. Bu usul suvni tejaydi, yerning unumdorligini oshiradi, paxta xarajatlarini oldindan qoplaydi. 1 gektardan o‘rtacha 300 -500 kilogramm zira hosili olinadi. Bu esa dehqon uchun qo‘shimcha daromad va iqtisodiy barqarorlik degani. Paxta dalalarida qator orasiga zira ekish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish va hosilni oshirish mumkin. Bu usul joriy yilda viloyatimiz paxta dalalarida sinov tariqasida ekib ko‘rilmoqda.

A.ISMOILOV,
O‘simliklar karantini va himoyasi viloyat boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari.

B.FAYZULLAYEV,
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi, dotsent.

Raqamlashtirish:

hujjatlar elektron arxiv tizimiga o‘tkaziladi

tron shaklda yuritilishi, barcha jarayonlarning axborot tizimida qayd etilishi hamda hujjatlar harakatining to‘liq nazorat qilinishi hujjatlar-ni asossiz o‘zgartirish, yashirish, yo‘qotish yoki ularni ko‘rib chiqish muddatlarini sun‘iy cho‘ziq kabi korrupsion xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi. Amalga oshirilgan har bir operatsiyaning elektron tizimda saqlanishi mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshiradi, ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlaydi hamda fuqarolar va tadbirkorlarga ko‘rsatilayotgan arxiv xizmatlarining shaffofligi va xollisligini kuchaytiradi. Qarorda axborot xavfsizligini ta’minlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Elektron arxiv hujjatlarini saqlash va ulardan foydalanishda zamonaviy kibernetik talablari joriy etilib, xizmat doirasida foydalaniladigan hujjatlar bilan ishlashning iшонchli mexanizmlari belgilanmoqda. Bu esa elektron hujjatlarning daxlsizligi va xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, hujjat bilan Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zaxriv” agentligi Yagona milliy arxiv axborot tizimining mulkdori, Adliya organlari va muassasalari-

da axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi esa tizim operatori etib belgilandi. Davlat organlari va tashkilotlari 2026-yil 1-noyabrga qadar tizimga ulanish choralarini ko‘rishlari lozim.

Bugungi kunda arxiv nafaqat tarixiy merosni saqlovchi maskan, balki davlat boshqaruv va jamiyat taraqqiyotining muhim axborot manbai hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali arxiv tizimida halollik, qonun ustuvorligi, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari yanada mustahkamlanib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari amalda ta’minlanadi.

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori arxiv sohasini raqamlashtirish, hujjatlar xavfsizligini ta’minlash, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va samaradorlikni oshirish, korrupsion omillarni kamaytirish hamda fuqarolar uchun arxiv xizmatlarini yanada qulay va sifatli tashkil etishda muhim huquqiy asos bo‘ladi.

Jamolbek KUSHMANOV,
viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

REKLAMA, E‘OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA‘VOLAR BO‘LSA!

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Norkulov Turakul Isakovichga (2015-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

Kattaqo‘rg‘on shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Botirov Ozod Komiljonovich notarial idorasida marhum Saitova Sofiya Xaydarovnaga (2026-yil 19-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Botirov Ozod Komiljonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Kattaqo‘rg‘on shahri Alisher Navoiy ko‘chasi, 148-uy.

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Mehroj Shuhratovich notarial idorasida marhum Shukurov Sobir Daminovichga (2007-yil 16-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Mehroj Shuhratovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko‘chasi, 20-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial

idorasida marhum Qobilov Soliga (2018-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Niyazova Gulsaraga (2013-yil 26-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahmonova Lola Vahobovna notarial idorasida marhum Bibarsova Munira Axmedjanovnaga (2026-yil 7-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahmonova Lola Vahobovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Shaxnazarov Vazgen Sergeevichga (2024-yil 3-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Ibragimova Maxfirat Israilovnaga (2021-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Mavlyanov Nasir Radjabovichga (2021-yil 2-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 156-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Isroilova Xabibaga (2025-yil 21-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat

etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko‘chasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Barotov Raxmonga (2023-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Ismoyilov Nurmuxammad Ismoyil o‘g‘li ga (2026-yil 14-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Kobilov Ziyoga (2015-yil 2-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 117-uy.

Amir Temur TURON

davlatini qanday boshqargan?

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Sohibqiron tomonidan tashkil qilingan davlatda avval hokimi mutlaq - Amir Temur, soʻngra esa uning vorislari bevosita hukmronlik qilishgan.

Saltanatni devonbegi – Bosh vazir boshliq yetti vazirlikdan iborat arkoni davlat – vazirlik mahkamasi boshqargan. Ulardan birinchisi – mamlakat va raiyat vazirligi. U viloyat va tumanlardan toʻplanadigan turli soliq va oʻlponlar, yetishtirilgan hosil hamda mamlakat obodonchiligi bilan shugʻullangan. Ikkinchisi – vaziri sipoh, yaʼni harbiy ishlar vaziri. U navkarlarning taʼminoti (maoshi, oziq-ovqat va qurol-yarogʻlari) bilan shugʻullangan. Uchinchisi – tijorat (savdo) vaziri edi. U tashqi savdo boji – tamgʻa, chorvachilikdan toʻplanadigan zakot, egasiz qolgan mol-mulkning tasarrufi, meros va merosxoʻrlilik kabi masalalar bilan shugʻullangan. Toʻrtinchisi – saltanatning moliya ishlari vaziri boʻlib, davlat xazinasining kirim-chiqimlarini boshqargan.

Chegara viloyatlari va tobe mamlakatlar bosh-qaruvini nazorat qilish uchun maxsus uchta vazir tayinlangan. Ular mazkur viloyat va mamlakatlar-dan davlat xazinasiga tushadigan daromadlar-ni nazorat qilgan. Oʻz navbatida bu uch vazir saltanatning **xolisa** deb yuritilgan bosh nazorat hayʼatini tashkil etgan. Bu yetti vazir devonbegi-ga boʻysungan va u bilan bamaslahat davlatning moliyaviy ishlari amalga oshirganlar.

Yozma manbalardan maʼlum boʻlishicha, Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida saltanat devonxonasida Amir Dovud, Jaloliddin Firuzshoh, Gʻiyosiddin Shohmalik, Alouddin Alika Koʻkaldosh va Alisher Navoiydek dono devonbegilar bu oliy mansabda faoliyat koʻrsatganlar, mamlakatning obodonchiligi yoʻlida beqiyos xayrli ishlarni amal-ga oshirganlar.

Devonxona qoshida **arzbegi, sadri aʼzam, shayxulislom** va **ahdos qozisi** kabi lavozimlar mavjud boʻlgan. **Arzbegi** fuqaro va sipohiylardan tushadigan arzu shikoyatlar hamda mamlakatdagi ahvol toʻgʻrisida maʼlumot toʻplash va bu borada oliy dargohga axborot berib turish kabi vazifalarni bajargan. **Sadri aʼzam** – bosh sadr mamlakatda-gi barcha vaqf xoʻjaliklarini nazorat qilgan, davlat hamda yer egalari tomonidan vaqf qilingan yerlar va mulklarni qayd etgan va vaqfnomalar tuzib, ularni qonunlashtirgan. **Shayxulislom** aholining turli ijtimoiy tabaqalari oʻrtasida shariat ahkomlari va islom aqidalarining bajarilishini nazorat qilgan.

Davlatning bosh qozisi – qozi ul-quzzat **“ah-dos qozisi”** nomi bilan yuritilib, u fuqaro ish-lari bilan shugʻullangan. Saltanat mahkamasida kirim-chiqimlarini qayd etuvchi maxsus munshi – kotib faoliyat koʻrsatgan.

Mamlakat maʼmuriy jihatdan **ulus, viloyat** va **tuman**larga boʻlinib, ular hokim, noib va tu-manboshilar tomonidan boshqarilgan. Ularning aksariyati harbiy kishilar – amirlardan iborat edi. Har bir shahar va viloyatning moliya devoni, qozi-si, muftisi, mutavallisi va muxtasibi boʻlgan. Lash-kaarlar uchun maxsus **qoziyi lashkar** tayin etilgan. Har bir shahar va qalʼalarda **qutvol** (komendant) tayinlanib, unga shahar va qalʼa istehkomlarini taʼmirlash va ularning mudofaasi yuklangan.

Fath etilgan viloyat va hududlar temuriyzodalari va xizmat koʻrsatgan amirlarga suyrugʻol tarzida inʼom qilinib, ular orqali boshqarilgan. Masalan, Amir Temur hayotligi chogʻidayoq saltanatni asosan **toʻrt qism (ulus)**ga boʻlib, oʻgʻillari va nevaralariga taqsimlab bergan. Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) Shohruxga, Gʻarbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, yaʼni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Gʻazna, Balx va Kobul viloyatlari, Shimoliy Hindiston (markazi Gʻaz-na, keyinchalik Balx) katta oʻgʻli marhum Jahon-girning farzandi Pirmuhammadga suyrugʻol qilib berilgan. Davlatning markaziy qismi – Movaroun-nahr va Xorazm (markazi Samarqand)ni esa Amir Temurning oʻzi boshqargan.

Turon davlati oʻziga xos tartib-qoidalariga asos-langan holda idora etilgan. Garchi uluslar markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ammo ular maʼlum darajada mustaqil edilar. Ularda alohida devonxona, qoʻshin boʻlib marka-ziy hukumatga tobelik davlat xirojining bir qismini Samarqandga yuborish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida oʻz qoʻshini bilan qatnashish yoki talab etilgan sonda askar yuborishdan iborat edi.



Qahramon RAJABOV,
tarix fanlari doktori, professor.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 253 nusxada chop etildi. Buyurtma 282. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Parazitar kasalliklar nafaqat tibbiyot, balki insoniyat oldida turgan global muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, dunyo boʻyicha parazitar kasalliklarning 270 dan ortiq turi mavjud boʻlib, har yili 4,5 milliardga yaqin holat qayd etiladi.

Parazitar kasalliklar 35 foizga kamaydi

Ushbu kasalliklar oqibatida 15-16 million nafar inson hayotdan koʻz yumadi. Jumladan, malyariyadan 230 million, visseral leishmaniozdan 700 mingdan 1,3 milliongacha bemorlar vafot etayotgani muammoning qanchalik dolzarb ekanini koʻrsatadi.

Parazitar kasalliklar aholining salomatligiga, mehnat qobiliyatiga, ijtimoiy farovonligiga va iqtisodiy taraqqi-yotga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, gelmintozlar bo-lalar organizmiga jiddiy zarar yetkazib, kamqonlik, ozish, immunitet pasayishi kabi asoratlarni keltirib chiqaradi. Shu bois Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikro-biologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bugun oʻz faoliyatini zamonaviy talablar asosida amalga oshirmoqda. Markaz tarkibidagi koʻp yillik tajriba va ilmiy salohiyatga ega L.Isayev nomidagi shifox-ona nafaqat Samarqand, balki qoʻshni viloyatlar hamda Tojikiston va Qozogʻiston kabi respublikalar aholisiga ham tibbiy xizmat koʻrsatib kelmoqda.

Respublikada hududiy kasallanish tuzilmasida gel-mintozlar ahamiyatli oʻrin egallaydi. Fargʻona, Naman-gan, Qashqadaryo, Surxondaryo kabi togʻli hududlarda askaridoz va trixosefalyoz oʻchoqlari saqlanib qolgan. Amudaryo sohillarida - Xorazm viloyati va Qoraqal-pogʻiston Respublikasida teniarinxoz keng tarqalgan. Enterobioz va gimenolepidoz esa shahar va qishloq joylarda koʻp uchraydigan gelmintozlar qatoriga kiradi. Olib borilayotgan tizimli profilaktik tadbirlar natijasida kasallikning oldini olishda ijobiy oʻzgarishlar kuzatilmoq-da. Jumladan, 2025-yilda viloyatda parazitar kasalliklar avvalgi yillarga qaraganda 35 foizga kamaygan.

Filial klinikasi stasionar, maslahat-poliklinika va yordamchi boʻlinmalardan iborat boʻlib, 95 oʻringa moʻljallangan. Barcha stasionar boʻlinlarda bemor-lar uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bu esa davolash samaradorligini oshirmoqda. Fitobar faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. 42 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari asosida parhez taomlar tayyorlanadi. Oshxona autorsing tizimiga oʻtkazilgan. Maslahat-poliklinika boʻlimi 50 qatnov quvvatiga ega boʻlib, 7 nafar malakali shifokor

faoliyat yuritadi.

Poliklinika-da EKG, UTT, zamonaviy endoskopiya, gidrokolonaterapiya, oshqozon va duodenal zondlash kabi tekshi-ruvlar amalga oshiriladi. Pediatr-parazitolog, nevropa-tolog, endokrinolog, kardiolog, gastroenterolog, ginekolog, stomatolog, rentgenolog kabi mu-taxassislar aholiga xizmat koʻrsatmoqda.

Klinika laboratoriyasida 44 turdan ortiq umumiy klinik, biokimyoviy, immunologik va serologik tahlillar bajariladi. Laboratoriya zamonaviy asbob-uskunalar va reaktivlar bilan toʻliq taʼminlangan.

Muassasada faoliyat koʻrsatayotgan 17 nafar shifokorning 15 nafari, 43 nafar oʻrta tibbiy xodimning 30 nafari ham toifaga ega. Ular respublika markazi va malaka oshirish institutlarida zamonaviy davolash stan-dartlari boʻyicha muntazam bilimlarini boyitib kelmoqda.

Xodimlarimiz viloyatning barcha tuman, shaharlari-ga biriktirilib, parazitar kasalliklarni kamaytirish boʻyicha metodik va amaliy yordam koʻrsatib kelmoqda. Kasal-liklarning oldini olish maqsadida viloyatda 2-10 yoshli bolalar oʻrtasida ichak gelmintozlarini kamaytirish maq-sadida profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirildi. Taʼlim muassasalari, mehribonlik uylari, mak-tab-internatlarda bolalar joyida tekshirilib, maxsus preparatlar tarqatiladi.

Lola MAHMUDOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi L.Isayev nomli mikrobiologiya virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti direktori.



Viloyat pedagogik mahorat markazi Hindistonning Bombay texnologiya instituti, Malayziyaning Utara universiteti hamda Xitoydagi YUNESKO markazlari bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻygan. Bu hamkorlik orqali oʻqituvchilar xorijiy tajribani oʻrganib, uni milliy taʼlim tizimiga moslashtirish imkoniga ega boʻlmoqda.

Xalqaro integratsiyaning eng yorqin namunasini esa Fransiya-ni Nitsa shahrida tashkil etilgan malaka oshirish dasturida koʻrish mumkin. “Frankofoniya” tashkiloti hamda Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institu-ti hamkorligida oʻtkazilgan ushbu dastur pedagoglar uchun haqiqiy tajriba maktabiga aylandi. 40 soatlik oʻquv jarayoniga asoslangan dastur “Birgalikda taʼlim olish” tamoyiliga tayanib, oʻqituvchilarni faol ishtirok-chi sifatida maydonga chiqardi.

Dasturda ishtirok etgan peda-goglar nafaqat yangi bilimlar, balki butunlay yangicha fikrlash tarzini ham oʻzlashtirdi. Darsga oʻzgacha qarash, oʻquvchini jarayon markaziga qoʻyish, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etish – bularning barchasi zamonaviy taʼlimning asosiy talablari ekanligi yana bir bor isbotlandi.

Alohida taʼkidlash joizki, bugungi taʼlim jarayonida sunʼiy intellekt tex-nologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiya yordamida oʻqituv-chi har bir oʻquvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etishi mumkin. Natija-da taʼlim jarayoni yanada samarali

Xalqaro tajribalar oʻrganilyapti



va qiziqarli tus oladi.

Shuningdek, gorizontal taʼlim modeli ham amaliyotda oʻz samarasi-ni bermoqda. Bu yondashuv oʻquv-chilar oʻrtasida hamkorlikni kuchay-tirib, bilimlarni oʻzaro almashish orqali chuqurroq oʻzlashtirishga xizmat qiladi. Muhimi, bu usul oʻquvchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlash koʻnik-malarini shakllantiradi.

Bugungi kunda keng qoʻllanilayotgan yana bir innovatsion metod – bu teskari oʻqitish, yaʼni “flipped classroom” texnologiyasi. Bunda oʻquvchilar yangi mavzuni mustaqil oʻrganib keladi, dars ja-rayonida bilimni mustahkamlash va

amaliy qoʻllashga eʼtibor qaratila-di. Natijada dars vaqtidan sama-rali foydalaniladi, oʻquvchining faolligi ortadi. Zamonaviy taʼlim faqat tex-

nologiyalar bilan cheklanib qolmay-di. Pedagog shaxsining rivoji ham muhim omil sifatida qaralmoqda. Insonparvarlik, mehr-muhabbat, sogʻlom turmush tarzi va ekologik madaniyat kabi qadriyatlar oʻqituv-chining kundalik faoliyatida oʻz aksini topishi zarur. Chunki kelajak avlod aynan shu qadriyatlar asosida tarbiyalanadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, xalqaro integratsiya taʼlim sifatini oshirishda kuchli omil boʻlib xiz-mat qilmoqda. Xorijiy tajribalarni oʻrganish orqali oʻqituvchilarning kasbiy kompetensiyalari oshmoqda, darslarga innovatsion yondashuv-lar kirib kelmoqda, yangi meto-dik ishlanmalar yaratilmoqda. Muhimi, pedagoglarning dunyo-qarashi kengayib, global taʼlim tendensiyalarini chuqur anglay boshlayapti.

Jasur ABDURAHMONOV,
viloyat pedagogik mahorat markazi direktori oʻrinbosari.



Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

Gʻ.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda